QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	2718
Djumanov Turat Alimbekovich	
KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH ORQALI HUDUDLARNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	2722
Rashidov Mels Karimovich, Umarov Xurshidbek Ixtiyor o'g'li	
KORXONALARDA RAQOBAT USTUNLIGINI YARATISHDA YANGILIKLARNI MOLIYALASHTIRISH VA XATARLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI	2727
Umarova Nilufar Abdugaxor qizi	
MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING STATISTIK TAHLILI VA BANDLIK DARAJASI DINAMIKASI.....	2731
Qosimjonov G'ulomjon Qosimovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHDA RISK-MENEJMENTNING NAZARIY ASOSLARI	2735
Misirov Iskandar Abduvaliyevich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING JADAL RIVOJLANISHI SHAROITIDA O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT INDEKSI O'ZGARISHI VA UNING OMILLI TAHLILI	2740
Karimov Odiljon Boqiyevich	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI INSTITUTSIONAL MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	2746
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
BANK FILIALLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	2753
Xodjakulov Akmal Erkinovich	



BANK FILIALLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xodjakulov Akmal Erkinovich

“Poytaxt bank” boshqaruv raisi o‘rinbosari

Annotatsiya. Banklararo raqobatning kuchayishi sharoitida mijozlarni jalb etish va ularning pul mablag'larini depozitlarga yo'naltirish masalasi banklar faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Banklar hududlarda filial tarmoqlarini kengaytirish orqali moliyaviy xizmatlar bozorida o'z mavqeini mustahkamlashga intilmoqda. Raqobat muhitida bank faoliyatini strategik rivojlantirish hududiy mijozlar ehtiyojlariga mos bank xizmatlarini taklif etish imkonini beradigan samarali filial tarmoqlarini shakllantirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, filial tarmoqlari tashkil etilgandan so'ng ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish dolzarb vazifaga aylanadi. Ayniqsa, bank filiallarining natijadorligini baholash hamda barqaror faoliyatini ta'minlash masalalari ilmiy-amaliy yondashuvni talab qiladi. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi banklari filiallari faoliyati samaradorligini baholash amaliyoti tahlil qilinib, uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank filiali, daromad, xarajat, sof foyda, samaradorlik, banklararo raqobat, foizli daromad, foizsiz daromad, Markaziy bank, aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi, sof foizli marja.

Abstract. In the context of intensifying interbank competition, attracting customers and mobilizing their funds into deposits has become one of the key priorities of banking activity. Banks seek to strengthen their market positions by expanding branch networks across regions. Strategic development of banking operations in a competitive financial services market requires the establishment of efficient branch networks capable of offering services tailored to regional customer needs.

At the same time, once branch networks are established, effective coordination and performance management of branches become essential. In particular, evaluating and ensuring the efficiency of bank branches requires a comprehensive scientific and practical approach. This article analyzes the practice of assessing the performance efficiency of bank branches in the Republic of Uzbekistan and proposes scientifically grounded recommendations for its improvement.

Key words: bank branch, income, expenses, net profit, efficiency, interbank competition, interest income, non-interest income, Central Bank, return on assets, return on equity, net interest margin.

Аннотация. В условиях усиления межбанковской конкуренции привлечение клиентов и размещение их средств на депозитах становится одним из приоритетных направлений деятельности банков. Расширяя филиальные сети в регионах, банки стремятся укрепить свои позиции на рынке финансовых услуг. Стратегическое развитие банковской деятельности в конкурентной среде предполагает формирование эффективной филиальной сети, способной предоставлять услуги с учетом потребностей региональных клиентов.

Вместе с тем после создания филиальной сети особое значение приобретает координация и повышение результативности деятельности филиалов. Оценка и обеспечение их эффективной работы требуют научно обоснованного подхода. В статье проанализирована практика оценки эффективности деятельности филиалов банков Республики Узбекистан и разработаны рекомендации по ее совершенствованию.

Ключевые слова: банковский филиал, доход, расходы, чистая прибыль, эффективность, межбанковская конкуренция, процентные доходы, непроцентные доходы, Центральный банк, рентабельность активов, рентабельность капитала, чистая процентная маржа.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy jihatdan va aholi soni bo'yicha rivojlanib borayotgan davlat bo'lganligi sababli, tijorat banklarining hududlarda filiallar tarmog'ini yaratishi xizmatlar hajmining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Banklar o'zining asosiy missiyasi, strategiyasi va yo'nalishidan kelib chiqib, hududlarda istiqbolli



tahlillar asosida bir yoki bir nechta filiallar tashkil etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari soni 2024-yil birinchi yarim yillik yakuni bo'yicha 35 tani tashkil etib, universal bank sifatida iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga xizmat ko'rsatmoqda. Shundan, tijorat banklarining filiallari 2023-yil yakunida jami 696 tani tashkil etgan. Bank tizimida faoliyat yuritayotgan xizmat ko'rsatish markazlari va bank xizmatlari ofislari soni 2023-yilda 1 816 tani tashkil etgan.

Bank filiallari faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari va ularni baholashda qaysi jihatlarga e'tibor berish kerakligi muhim masala hisoblanadi. Banklar faoliyatining samaradorligini baholashda moliyaviy natijalarga e'tibor qaratiladimi yoki banklarning biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishining tahliliga asoslaniladimi? Yuqoridagi savollarga javob izlash va ularni to'liq bayon etish maqsadidan kelib chiqib, samara va samaradorlik tushunchalari hamda ularni aniqlash usullari xususida to'xtalib o'tamiz.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasi bank tizimida filiallar tarmog'ini kengaytirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2023-yil oxirida banklar rekord miqdorda yangi ofislarni ochdi. Bunda 2023-yilning so'nggi uch oyi ichida banklarning hududiy tarmog'i 600 dan ortiq filial va ofislarga kengaygan¹. Rossiya banklari uyushmasining ma'lumotlariga ko'ra, o'sish asosan Uzoq Sharq, Sibir va Ural federal okruglarida kuzatilmoqda. Bank xizmatlari bozorida ishtirokchilar masofaviy va jismoniy xizmatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlashga intilib, yangi ofislarni ochmoqda. Bundan tashqari, banklar 2024-yilda butun mamlakat bo'ylab yuzlab shunday filiallarni ishga tushirishni rejalashtirgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktabrdagi PQ-4498-sonli "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori²ga asosan bir qator muhim vazifalar belgilab berildi. Xususan, tijorat banklari respublikaning barcha hududlarida "bank xizmatlari ofislari"ning keng tarmog'ini yaratishi, zarur hollarda esa mavjud filiallar tarmog'i tuzilmasini qayta ko'rib chiqishi belgilandi. Bu esa tijorat banklaridan filiallar tarmog'ini kengaytirish bilan birga, ularning faoliyati natijalarini doimiy tahlil qilish, baholash va samarali boshqarishni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank filiallarining samaradorligini baholash masalalari mahalliy va xorijiy olimlar hamda tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan va o'rganilmoqda. Jumladan, Murilloning fikriga ko'ra, filiallarning samaradorlik gipotezasi shuni ko'rsatadiki, xarajatlarni kamaytirishga erishish banklarga past foiz stavkalarida kreditlar ajratish imkonini beradi. Bu esa bank xizmatlari bozorida ulushning oshishiga xizmat qiladi va natijada bankning boshqa banklarga nisbatan raqobatbardosh ustunliklari shakllanadi. Bank sohasida xususiylashtirish jarayonlari va bozor mexanizmlarining rivojlanishi raqobat muhitini kuchaytiradi, bu esa operatsion xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi³.

Burgess va Pandey tadqiqotlariga ko'ra, Hindistonda xususi banklar asosan shaharlarda filiallar ochishni afzal ko'radi. Davlat banklari esa qishloq joylarida hamda hududlarda filiallar tashkil etishga ustuvor ahamiyat qaratadi. Buning sababi shundaki, filiallar samaradorligi nisbatan past bo'lgan taqdirda ham aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi⁴.

Burgstaller tadqiqotlariga ko'ra, tijorat banklari ko'proq aholi zich joylashgan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan va bank xizmatlariga talab yuqori bo'lgan hududlarda joylashadi. Aholi jon boshiga daromad yuqori bo'lgan hududlarda banklar sezilarli darajada ko'proq faoliyat yuritadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy ochiqlik filiallar tarmog'ining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan⁵.

Maiti va Sahu tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, hatto AQSh va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan moliyaviy tizimga ega mamlakatlarda ham barcha aholini rasmiy moliyaviy xizmatlar bilan to'liq qamrab olish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu mamlakatlarda aholining ma'lum qismi moliyaviy tizimdan yetarli darajada foydalanmaydi. Banklarni institutsional qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va aholining keng qatlamlarini moliyaviy tizimga jalb etishda muhim rol o'ynaydi⁶.

1 Сетевое братство: банки открыли рекордное число офисов в конце 2023. <https://iz.ru/1644128/evgenii-grachev/setevoe-bratstvo-banki-otkryli-rekordnoe-chislo-ofisov-v-kontse-2023-go>

2 <https://lex.uz/docs/-4569641>

3 Murillo, Victoria. (2002). Political bias in policy convergence: privatization in policy choices in latin america. *World Politics*, 54(4), 462–493.

4 Burgess, R. and Pande, R. (2005), "Do rural banks matter? Evidence from the Indian social banking experiment", *American Economic Review*, Vol. 95 No. 3, pp. 780-795.

5 Burgstaller, J. (2013), "Bank office outreach, structure and performance in regional banking markets", *Regional Studies*, Vol. 47 No. 7, pp. 1131-1155.

6 Maity, S. and Sahu, T.N. (2020a), "Role of public sector banks towards financial inclusion during pre and post introduction of PMJDY: a study on efficiency review", *Rajagiri Management Journal*, Vol. 14 No. 2, pp. 95-105.



Liu va Wang tadqiqotlarida moliyaviy texnologiyalarning umumiy rivojlanishi Xitoyda tijorat banklari faoliyatiga dastlab ijobiy, keyinchalik esa nisbatan pasayuvchi ta'sir ko'rsatgani hamda ular o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Filiallar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni minimallashtirishga e'tibor qaratishi, rivojlanayotgan texnologiyalarni samarali joriy etishi, potensial xavflarning oldini olish va ularni boshqarish orqali o'z raqobatbardoshligi hamda faoliyat samaradorligini oshirishi lozim⁷.

Chen va boshqalar bank filiallari samaradorligini boshqarish nuqtai nazaridan raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, boshqaruv uchun tezkor va aniq ma'lumotlar taqdim etish, xodimlarni motivatsiya qilish hamda filiallar faoliyatini yagona tizim asosida boshqarishni taklif etgan. Ularning empirik tahlillari raqamli transformatsiya banklarning strategik rivojlanish omili sifatida ularning qiymatini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi⁸.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida shuni ko'rish mumkinki, tadqiqotlarning aksariyatida bank filiallari faoliyatini transformatsiya qilish, filiallarni tashkil etish hamda faoliyat jarayonlariga yangi texnologiyalarni joriy etish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, filiallarning moliyaviy natijalari asosida ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash amaliyotiga alohida e'tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Banklarning filial tarmoqlari samaradorligini baholash jarayonida filiallar faoliyatida erishilgan moliyaviy natijalar atroflicha tahlil qilindi. Bunda tijorat banklarining daromad va xarajat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratildi hamda ularning o'zaro nisbatlari asosida samaradorlik darajasi baholandi.

Mazkur maqolada ma'lumotlarni guruhlash, ko'rsatkichlarning qiyosiy va tarkibiy tahlili, induksiya va deduksiya, analiz va sintez kabi ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, AT "Aloqabank" hamda ATB "O'zsanoatqurilishbank" filiallari faoliyatiga oid statistik va amaliy ma'lumotlar asosida taqqoslama tahlillar amalga oshirildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Bank filiallari faoliyatini tahlil qilishda turli usullarni kompleks qo'llash bank daromadlari va xarajatlarni miqdoriy hamda sifat jihatdan baholash imkonini beradi. Tijorat banklari filiallarining moliyaviy natijalari va xarajatlari tahlili asosida ularning rentabelligini oshirish uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish mumkin (1-jadval).

1-jadval. O'zsanoatqurilishbank ATB filiallari foizli daromadlarining jami daromadlardagi ulushi o'zgarishi⁹ (foiz hisobida)

Filiallar	31.12.19	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarishi
Andijon	75,8	64,1	76,6	58,2	63,0	-12,8
Buxoro	64,5	79,3	75,4	56,8	55,0	-9,4
Jizzax	84,3	83,5	83,9	67,0	86,0	1,7
Qashqadaryo	65,9	55,4	63,0	68,3	74,5	8,5
QQR	79,2	78,7	68,0	67,3	83,3	4,2
Navoiy	62,0	78,1	76,7	75,9	83,7	21,7
Namangan	67,2	77,2	60,2	54,3	56,0	-11,2
Samarqand	74,7	84,2	74,7	71,1	74,3	-0,4
Sirdaryo	85,9	77,7	66,9	79,9	76,2	-9,7
Surxondaryo	84,4	82,4	81,7	69,7	68,2	-16,2
Toshkent v.	72,0	66,7	66,3	64,7	71,5	-0,5
Toshkent sh.	72,4	82,1	71,7	60,5	63,3	-9,1
Farg'ona	64,9	70,7	61,3	53,9	68,1	3,2
Xorazm	62,3	65,2	58,2	47,9	63,4	1,1
O'rtacha	72,5	74,7	70,3	64,0	70,5	-2,1

7 Liu, M. F., & Wang, Q. (2019). The Impact of Financial Technology on Commercial Bank's Performance: A Theoretical and Empirical Study. Financial Forum, 26, 60-70.

8 Chen, T. Y., He, W. J., & Li, W. Q. (2022). Analysis on Human Resources Management and digital Human Resources Management System in the Digital Era. Science and Technology Management Research, 42, 130-136.

9 O'zsanoatqurilishbank ATB ning hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



O'zsanoatqurilishbank ATB filiallari faoliyati natijalarini daromadlar tarkibidan kelib chiqib tahlil qilamiz. Tahlilda filiallarning asosiy daromad manbai bo'lgan foizli daromadlarni ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, aktivlarning asosiy qismini tashkil etuvchi kredit qo'yilmalari foizli daromadlarning asosiy manbai hisoblanadi.

O'zsanoatqurilishbank ATB filiallarida tahlil davrida foizli daromadlar o'rtacha 2,1 foizga kamayganini kuzatish mumkin. Mazkur o'zgarish, xususan, Andijon (–12,8 foiz), Buxoro (–9,4 foiz), Namangan (–11,2 foiz), Sirdaryo (–9,7 foiz), Surxondaryo (–16,2 foiz) hamda Toshkent shahri filiallarida (–9,1 foiz) qayd etilgan pasayishlar bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, bankning Navoiy (21,7 foiz), Qashqadaryo (8,8 foiz), Qoraqalpog'iston Respublikasi (4,2 foiz) va Farg'ona (3,2 foiz) filiallarida foizli daromadlar o'sishi qayd etilgan. Ushbu holat mazkur filiallarda kredit qo'yilmalari hajmining oshishi yoki kredit portfeli tarkibining optimallashtirilishi, shuningdek foizsiz daromadlar ulushining kengayishi bilan izohlanishi mumkin.

Quyidagi jadvalda O'zsanoatqurilishbank ATB filiallarining foizli daromadlarining jami daromadlardagi ulushi tahlili keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. O'zsanoatqurilishbank ATB filiallari foizsiz daromadlarining jami daromadlardagi ulushi o'zgarishi¹⁰ (foiz hisobida)

Filiallar	31.12.19	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarishi
Andijon	24,2	35,9	23,4	41,8	37,0	12,8
Buxoro	35,5	20,7	24,6	43,2	45,0	9,4
Jizzax	15,7	16,5	16,1	33,0	14,0	-1,7
Qashqadaryo	34,1	44,6	37,0	31,7	25,5	-8,5
QQR	20,8	21,3	32,0	32,7	16,7	-4,2
Navoiy	38,0	21,9	23,3	24,1	16,3	-21,7
Namangan	32,8	22,8	39,8	45,7	44,0	11,2
Samarqand	25,3	15,8	25,3	28,9	25,7	0,4
Sirdaryo	14,1	22,3	33,1	20,1	23,8	9,7
Surxondaryo	15,6	17,6	18,3	30,3	31,8	16,2
Toshkent v.	28,0	33,3	33,7	35,3	28,5	0,5
Toshkent sh.	27,6	17,9	28,3	39,5	36,7	9,1
Farg'ona	35,1	29,3	38,7	46,1	31,9	-3,2
Xorazm	37,7	34,8	41,8	52,1	36,6	-1,1
O'rtacha	27,5	25,3	29,7	36,0	29,5	2,1

O'zsanoatqurilishbank ATB filiallarining foizsiz daromadlari tarkibidagi o'zgarishlar tahlil davrida o'rtacha 2,1 foizga oshgan. Mazkur bank filiallari faoliyatida foizsiz daromadlarning jami daromadlardagi ulushi nisbatan o'zgaruvchan bo'lgan bo'lib, 2022-yilda eng yuqori ko'rsatkich qayd etilgan va filiallar bo'yicha o'rtacha 36 foizni tashkil etgan.

So'nggi uch yillik davrda foizsiz daromadlarning jami daromadlardagi ulushi o'sish tendentsiyasini namoyon etgan. Filiallar kesimida Andijon, Surxondaryo, Namangan, Toshkent shahri va Sirdaryo filiallarida ijobiy dinamik ko'rsatkichlar kuzatilgan.

Bankning Xorazm va Farg'ona filiallarida mazkur ko'rsatkich tahlil davrida o'rtacha 30 foizdan yuqori darajada shakllangan bo'lib, bu holatni filiallar daromad manbalarini diversifikatsiya qilish borasidagi samarali yondashuv natijasi sifatida ijobiy baholash mumkin (3-jadval).

¹⁰ O'zsanoatqurilishbank ATB ning hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

3-jadval. AT “Aloqabank” filiallari foizli daromadlarining jami daromadlardagi ulushi o'zgarishi¹¹ (foiz hisobida)

Filiallar	31.12.19	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarishi
Amaliyot	84,9	74,9	63,1	68,6	50,8	-34,1
Andijon	83,4	74,0	80,2	66,2	75,6	-7,8
Buxoro	83,6	78,9	81,7	84,5	83,6	0,0
Jizzax	82,1	88,8	78,7	72,7	77,3	-4,8
Qashqadaryo	90,0	84,7	82,8	81,8	83,5	-6,5
QQR	85,3	83,6	81,1	76,7	79,6	-5,7
Qo'qon	88,4	90,3	86,9	75,4	81,2	-7,1
Mirobod	89,0	88,7	80,1	71,3	72,9	-16,1
Navoiy	91,0	87,7	87,2	86,3	89,6	-1,3
Namangan	78,7	74,8	81,3	77,4	82,4	3,7
Samarqand	88,7	86,5	84,2	65,7	72,1	-16,6
Surxondaryo	86,4	86,3	82,0	74,8	78,0	-8,4
Farg'ona	85,1	85,4	81,8	84,8	88,0	2,9
Xorazm	84,2	85,9	84,7	80,2	86,9	2,7
O'rtacha	85,8	83,6	81,1	76,2	78,7	-7,1

3-jadval ma'lumotlari asosida AT “Aloqabank” filiallari faoliyatida ham foizli daromadlar ulushida qisqarish kuzatilgan. Xususan, 2023-yilda bank bo'yicha foizli daromadlarning jami daromadlardagi o'rtacha ulushi 78,7 foizni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 7,1 foiz bandga kamaygan.

Foizli daromadlar ulushining pasayish tendensiyasi Aloqabank filiallari faoliyatida ham namoyon bo'lgan. Filiallar kesimida tahlil qilinganda, jami 15 ta filialdan 10 tasida foizli daromadlarning jami daromadlardagi ulushi qisqargan. Eng yuqori kamayish darajasi Amaliyot filialida (-34,1 foiz), Samarqand filialida (-16,6 foiz) hamda Mirobod filialida (-16,1 foiz) qayd etilgan.

Shu bilan birga, Namangan filialida yirik kredit loyihalarining moliyalashtirilishi foizli daromadlarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan va 2019-yilga nisbatan mazkur ko'rsatkich 3,7 foiz bandga oshgan (4-jadval).

4-jadval. AT “Aloqabank” filiallari foizsiz daromadlarining jami daromadlardagi ulushi o'zgarishi¹² (foiz hisobida)

Filiallar	31.12.19	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarishi
Amaliyot	15,1	25,1	36,9	31,4	49,2	34,1
Andijon	16,6	26,0	19,8	33,8	24,4	7,8
Buxoro	16,4	21,1	18,3	15,5	16,4	0,0
Jizzax	17,9	11,2	21,3	27,3	22,7	4,8
Qashqadaryo	10,0	15,3	17,2	18,2	16,5	6,5
QQR	14,7	16,4	18,9	23,3	20,4	5,7
Qo'qon	11,6	9,7	13,1	24,6	18,8	7,1
Mirobod	11,0	11,3	19,9	28,7	27,1	16,1
Navoiy	9,0	12,3	12,8	13,7	10,4	1,3
Namangan	21,3	25,2	18,7	22,6	17,6	-3,7
Samarqand	11,3	13,5	15,8	34,3	27,9	16,6
Surxondaryo	13,6	13,7	18,0	25,2	22,0	8,4
Farg'ona	14,9	14,6	18,2	15,2	12,0	-2,9
Xorazm	15,8	14,1	15,3	19,8	13,1	-2,7
O'rtacha	14,2	16,4	18,9	23,8	21,3	7,1

11 AT “Aloqabank” hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

12 AT “Aloqabank” hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



AT "Aloqabank" filiallari foizsiz daromadlarining jami daromatlardagi ulushi tahlil davrida 7,1 foiz bandga oshgan. Xususan, tahlil davrida bankning Amaliyot filialida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan. Amaliyot filiali daromatlari tarkibida foizsiz daromadlarning ortishi bankning mobil ilovalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar hamda elektron tijorat yo'nalishidagi operatsiyalardan olinadigan daromad hisobvaraqlarining mazkur filialga birlashtirilgani bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, bankning Navoiy va Buxoro filiallarida foizsiz daromadlarning jami daromatlardagi ulushi nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat ushbu filiallarda foizsiz daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va kengaytirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Bank tizimida foizli daromadlar ulushining qisqarishi va foizsiz daromadlar ulushining ortib borish tendensiyasini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

- banklararo raqobat kuchayishi natijasida kredit mahsulotlarini realizatsiya qilish sharoitlarining murakkablashuvi; shuningdek, muddatli to'lov asosida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari sonining ortishi iste'mol kreditlari bozorida raqobatni kuchaytirgan;

- kredit portfeli o'sish sur'atlarining avvalgi davrlarga nisbatan sekinlashuvi hamda banklarning risk darajasi nisbatan past bo'lgan foizsiz daromad manbalarini rivojlantirishga intilishi.

Bank filiallari foydasining ahamiyati shundaki, filiallar bir tomondan resurslarning muhim manbai sifatida xizmat qiladi, ikkinchi tomondan esa bankning moliyaviy barqarorligi va kapitallashuv darajasini mustahkamlashga ko'maklashadi. Filiallar faoliyatining yuqori daromadlilik bilan yakunlanishi bankning strategik maqsad va vazifalariga erishishiga hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Bank filiallarining daromadlilik darajasi turli ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lib, bu omillar bank faoliyatining hajmi va ko'lami, resurslardan foydalanish darajasi va samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. Moliyaviy tahlil asosida daromad va xarajatlarni samarali boshqarish, foyda olish va undan foydalanishning optimal mexanizmini ishlab chiqish mumkin.

Bank filiallari faoliyati natijalariga ta'sir etuvchi omillarni tasniflash hamda ularning miqdoriy ta'sirini tahlil qilish rentabellik o'sishining asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Bunda bankning umumiy tavakkalchilik darajasini oshirmasdan va balans likvidligini pasaytirmasdan daromadlilikni oshirish yo'nalishlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi (5-jadval).

5-jadval. O'zsanoatqurilishbank ATB filiallari samaradorlik ko'rsatkichlari o'zgarishi¹³ (foiz hisobida)

Filiallar	31.12.19	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarishi
Andijon	15,5	6,2	29,8	8,6	41,8	26,3
Buxoro	22,8	25,6	23,4	2,7	25,8	3,0
Jizzax	17,7	3,5	14,6	3,7	98,8	81,1
Qashqadaryo	14,9	16,7	33,3	40,4	32,9	18,0
QQR	35,6	23,4	30,5	5,2	53,6	18,0
Navoiy	26,2	21,2	26,7	14,7	44,9	18,7
Namangan	8,6	14,7	25,9	8,3	20,5	11,9
Samarqand	20,4	30,7	34,7	24,3	32,5	12,1
Sirdaryo	12,4	4,5	2,0	75,9	22,1	9,7
Surxondaryo	23,8	20,5	41,7	13,3	23,5	-0,3
Toshkent v.	23,5	10,0	21,3	28,7	33,9	10,4
Toshkent sh.	28,5	18,2	22,4	15,6	26,8	-1,7
Farg'ona	30,2	17,2	19,2	4,1	26,4	-3,8
Xorazm	10,0	2,4	0,0	0,0	12,2	2,2
O'rtacha	20,7	15,3	23,3	17,5	35,4	14,7

13 O'zsanoatqurilishbank ATB ning hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



O'zsanoatqurilishbank ATB filiallari faoliyati natijalarining samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, filiallar bo'yicha o'rtacha samaradorlik darajasi 14,7 foizga oshgan. Tahlil davrida 2020-yil yakuni bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich eng past darajada qayd etilgan bo'lsa, 2023-yil yakunida eng yuqori natija kuzatilgan.

Filiallar kesimida ayrim hududlarda o'rtacha ko'rsatkichlarning pasayishi qayd etilgan. Jumladan, Surxondaryo filialida 3,0 foiz, Toshkent shahri filialida 1,7 foiz hamda Farg'ona filialida 3,8 foiz pasayish kuzatilgan. Shu bilan birga, bankning aksariyat filiallari faoliyatida samaradorlik ko'rsatkichlarining ijobiy o'sish tendensiyasi shakllangan.

Ayniqsa, Jizzax filiali samaradorlik darajasi yuqori natijalarni namoyon etgan bo'lib, sarflangan resurslarga mutanosib darajada foyda shakllanganini ko'rish mumkin (6-jadval).


6-jadval. AT "Aloqabank" filiallari samaradorlik ko'rsatkichlari o'zgarishi¹⁴ (foiz hisobida)

Filiallar	31.12.19	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarishi
Amaliyot	7,1	2,9	0,1	111,0	144,0	136,9
Andijon	27,0	8,9	16,0	25,6	23,5	-3,5
Buxoro	36,9	29,4	16,6	21,5	17,0	-19,9
Jizzax	19,5	19,5	0,3	18,6	10,5	-9,0
Qashqadaryo	28,9	23,9	7,4	14,2	18,7	-10,2
QQR	19,8	17,0	-6,9	-2,4	11,6	-8,2
Qo'qon	36,2	23,2	12,1	28,1	14,9	-21,3
Mirobod	36,2	40,6	30,7	78,4	17,3	-18,9
Navoiy	22,4	24,8	15,7	13,7	11,4	-11,0
Namangan	24,7	24,8	16,1	26,7	9,0	-15,7
Samarqand	36,5	40,2	15,4	22,8	24,8	-11,7
Surxondaryo	20,8	15,0	-3,1	2,2	10,5	-10,3
Farg'ona	35,5	36,5	41,5	20,5	11,8	-23,7
Xorazm	24,0	24,5	8,0	18,6	10,9	-13,1
O'rtacha	26,8	23,7	12,1	28,5	24,0	-2,8

AT "Aloqabank" filiallari faoliyati natijalari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, filiallar bo'yicha o'rtacha samaradorlik darajasi 26,8 foizdan 24 foizga, ya'ni 2,98 foiz bandga pasaygan. Tahlil davrida 2021-yil yakuni bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich eng past darajada qayd etilgan bo'lsa, 2022-yilda eng yuqori natija kuzatilgan. Filiallar kesimidagi tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Amaliyot filialidan tashqari boshqa filiallarda samaradorlik ko'rsatkichlarida ma'lum darajada qisqarish kuzatilgan.

AT "Aloqabank"da samaradorlik darajasining pasayishiga ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida daromad keltiruvchi aktivlarning jami aktivlardagi ulushi qisqarib borayotgani, shuningdek, asosiy vositalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining oshib borishi bilan izohlanadi. Natijada bankning daromad shakllantiruvchi resurslarining bir qismi uzoq muddatli yoki nisbatan past daromadli aktivlarda jamlanib qolmoqda. Bu holat aktivlar tarkibini optimallashtirish va daromad keltiruvchi yo'nalishlarni kengaytirish zaruratini ko'rsatadi (1-rasm).

14 AT "Aloqabank" hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



1-rasm. AT "Aloqabank" ning daromad keltiradigan aktivlarining jami aktivlardagi ulushi o'zgarishi¹⁵. (yil yakunlari bo'yicha)

AT "Aloqabank"ning tahliliy ma'lumotlari asosida daromad keltiruvchi aktivlar ulushi 81,1 foizdan 70,9 foizga kamaygani, natijada daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'i oshgani kuzatiladi. Daromad keltirmaydigan aktivlar ulushining ortishi resurslarning samarali aylanishini cheklashi hamda bank faoliyati natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu munosabat bilan, AT "Aloqabank" tomonidan bank balansidagi aktivlarni to'liq inventarizatsiyadan o'tkazish, foydalanilmayotgan yoki past rentabelli mol-mulkni realizatsiya qilish hamda aktivlar tarkibini optimallashtirish choralari ko'rish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv daromad keltiruvchi aktivlar ulushini oshirish, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash va umumiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun mustahkam zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro amaliyotda banklar va ularning filial tarmoqlari faoliyatini baholashda qo'llaniladigan bir qator qo'shimcha ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ular bank faoliyatining yo'nalishi va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi va amaliyotga tatbiq etiladi. Ushbu ko'rsatkichlardan kompleks tarzda foydalanish filiallar faoliyatining natijadorligini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Bank filiallarining samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashda CIR (Cost to Income Ratio) ko'rsatkichidan muntazam foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur ko'rsatkich bankning operatsion faoliyati samaradorligini ifodalaydi hamda operatsion xarajatlarning daromadlarga nisbatini ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotda CIR ko'rsatkichining maqbul darajasi 50 foizgacha bo'lgan oraliq sifatida baholanadi.

Agar CIR 50 foizgacha bo'lsa, bu bankning yuqori operatsion samaradorligini anglatadi. 50 foizdan 100 foizgacha bo'lgan ko'rsatkich esa operatsion samaradorlikning pasayganligini bildiradi va xarajatlar hamda daromadlar tuzilmasini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Shu bois, filiallar kesimida CIR ko'rsatkichini muntazam monitoring qilish, xarajatlarni optimallashtirish va daromad bazasini kengaytirish bo'yicha tizimli choralarni amalga oshirish bank faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktabrdagi PQ-4498-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4569641>
2. Hughes, J. P., & Mester, L. J. (2008). Efficiency in Banking: Theory, Practice, and Evidence. Working Paper No. 08-1. Federal Reserve Bank of Philadelphia. SSRN: <https://ssrn.com/abstract=1092220>
3. Eken, M. H., & Kale, S. (2011). Measuring Bank Branch Performance.
4. Сетевое братство: банки открыли рекордное число офисов в конце 2023 года. <https://iz.ru/1644128/evgenii-grachev/setevoe-bratstvo-banki-otkryli-rekordnoe-chislo-ofisov-v-kontse-2023-go>
5. Murillo, V. (2002). Political Bias in Policy Convergence: Privatization Choices in Latin America. World Politics, 54(4), 462-493.
6. Burgess, R., & Pande, R. (2005). Do Rural Banks Matter? Evidence from the Indian Social Banking Experiment. American Economic Review, 95(3), 780-795.

15 AT "Aloqabank" hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



7. Burgstaller, J. (2013). Bank Office Outreach, Structure and Performance in Regional Banking Markets. *Regional Studies*, 47(7), 1131–1155.
8. Maity, S., & Sahu, T. N. (2020). Role of Public Sector Banks toward Financial Inclusion during Pre- and Post-Introduction of PMJDY: An Efficiency Review. *Rajagiri Management Journal*, 14(2), 95–105.
9. Liu, M. F., & Wang, Q. (2019). The Impact of Financial Technology on Commercial Banks' Performance: A Theoretical and Empirical Study. *Financial Forum*, 26, 60–70.
10. Chen, T. Y., He, W. J., & Li, W. Q. (2022). Analysis on Human Resources Management and Digital Human Resources Management Systems in the Digital Era. *Science and Technology Management Research*, 42, 130–136.
11. Пятков, А. Повышение эффективности деятельности банка: основные принципы и направления. <https://bosfera.ru/bo/povyshenie-effektivnosti-deyatelnosti-banka-osnovnye-principy-i-napravleniya>
12. Maity, S., & Sahu, T. N. (2022). Bank Branch Outreach and Access to Banking Services toward Financial Inclusion: An Empirical Evidence. *Rajagiri Management Journal*. <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/RAMJ-01-2022-0004/full/html>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
